

UO'K:336.76 JEL: R87

**TIJORAT BANKLARDA MOLİYAVIY XIZMATLARNI DIVERSIFIKATSIYA QILISH
ISTIQBOLLARI**

**ПЕРСПЕКТИВЫ ДИВЕРСИФИКАЦИИ ФИНАНСОВЫХ УСЛУГ В
КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ**

**PROSPECTS FOR DIVERSIFICATION OF FINANCIAL SERVICES IN
COMMERCIAL BANKS**

Roziqov Behzod Bahrom o'g'li

*ORCID:0009-0009-7693-3288 Fan va texnologiyalar universiteti Iqtisodiyot
kafedrası dotsent Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) Toshkent davlat
iqtisodiyot universiteti mustaqil lanuvchisi. E-mail:Graf-6512@mail.ru Phone:
+998977431516*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada tijorat banklarida ularning raqobatbardosh-ligi, samaradorligi va qiymat taklifini oshirish maqsadida moliyaviy xizmatlarni rivojlantirish strategiyalari ko'rib chiqiladi. Global texnologik rivojlanish va mijozlarning xohish-istaklarining o'zgarishi bilan ajralib turadigan davrda tijorat banklari o'zgaruvchan bozor talablariga javob berish uchun innovasiyalar va moslashish zarurligiga duch kelishmoqda. Maqolada barqaror o'sishga erishish va mijozlar ehtiyojlarini maksimal darajada qondirish uchun banklarning asosiy strategiyalari aniqlangan. Ushbu strategiyalar orasida raqamli transformasiya, mahsulot takliflarini kengaytirish, mijozlar tajribasini yaxshilash, moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, risklarni boshqarish tizimini mustahkamlash, inson kapitalini oshirishgaga investisiyalar va barqaror moliyalashtirish amaliyoti mavjud. Ushbu strategiyalarni amalga oshirish tijorat banklariga moliyaviy xizmatlar sohasida etakchi o'rinlarni egallashga, biznesning o'sishini rag'batlantirishga va kengroq maqsadlarga - iqtisodiy farovonlik va ijtimoiy farovonlikka erishishga yordam beradi.*

Kalit so'zlar: *tijorat banklari, moliyaviy xizmatlar, raqamli transformasiya, mahsulot takliflari, mijozlar tajribasi, moliyaviy mavjudlik, xatarlarni boshqarish, iste'dodlarni rivojlantirish, barqaror moliyalashtirish, innovasiyalar*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются стратегии развития финансовых услуг в коммерческих банках для повышения их конкурентоспособности, эффективности и ценностного предложения. В эпоху, характеризующуюся быстрым технологическим прогрессом и изменением предпочтений клиентов, коммерческие банки сталкиваются с необходимостью внедрения инноваций и адаптации к меняющимся требованиям рынка. В данной статье определены ключевые стратегии банков по достижению устойчивого роста и максимизации удовлетворенности клиентов. Эти стратегии включают*

цифровую трансформацию, расширение предложения продуктов, улучшение качества обслуживания клиентов, расширение доступа к финансовым услугам, усиление управления рисками, инвестиции в развитие талантов и методы устойчивого финансирования. Реализация этих стратегий поможет коммерческим банкам занять лидирующие позиции в сфере финансовых услуг, стимулировать рост бизнеса и достичь более широких целей экономического процветания и социального благополучия.

Ключевые слова: коммерческие банки, финансовые услуги, цифровая трансформация, продуктовые предложения, качество обслуживания клиентов, финансовая доступность, управление рисками, развитие талантов, устойчивое финансирование, инновации.

Abstract: *This paper examines strategies for developing financial services in commercial banks to enhance their competitiveness, efficiency and value proposition. In an era characterized by rapid technological advances and changing customer preferences, commercial banks are faced with the need to innovate and adapt to changing market demands. This article identifies the key strategies of banks to achieve sustainable growth and maximize customer satisfaction. These strategies include digital transformation, expanding product offerings, improving customer experience, enhancing access to financial services, strengthening risk management, investing in talent development and sustainable financing practices. Implementing these strategies will help commercial banks take a leadership position in financial services, drive business growth and achieve the broader goals of economic prosperity and social well-being.*

Keyword: *commercial banks, financial services, digital transformation, product offerings, customer experience, financial inclusion, risk management, talent development, sustainable finance, innovation.*

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi bank tizimi ikki pogonali bo'lib, birinchi pogonada mamlakat Markazi banklar va uning ikkinchi pogonasi tizhorat banklari turadi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki faoliyatining birlamchi qonuniy asosi bo'lib, 1995 yil 21 dekabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi qonun hisoblanadi.

Ushbu qonun O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining mamlakat pul muomalasi barqarorligini ta'minlovchi organ sifatidagi mavqeyini yanada mustahkamladi. Qonunning muhumlighi, unda Markaziy bank va Hukumat o'rtasidagi o'zaro munosabatlar batafsil yoritib berildi. Hamda, Markaziy bank o'z vakolatlari doirasida mustaqil ekanligi, Davlat Markaziy bankning majburiyatlari yuzasidan, Markaziy bank esa davlatning majburiyatlari yuzasidan javobgar bo'lmasligi alohida belgilangan [16].

"O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki tug'risida"gi qonunda Markaziy bankning kredit tashkilotlari faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish borasidagi

vakolatlari belgilab qo'yilgan. Shuningdek, Markaziy bankning bank nazoratining har ikkala usulni - masofaviy va inspeksion nazoratni qo'llashga vakolatli organ ekanligi belgilab qo'yilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tijorat banklari ustav kapitalining minimal miqdoriga nisbatan talablar belgilash va mavjud talablarni o'zgartirish huquqiga ega.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki mulk shakliga ko'ra davlat banki hisoblanadi. Chunki, uning ustav kapitali to'liq davlat budjetining mablag'lari hisobidan shakllantiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tijorat banklari va kredit tashkilotlari faoliyatini lisenziyalash vakolatiga ega.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki O'zbekiston xukumatiga bo'ysunmaydi, balki Oliy Majlis Senatiga hisobot beradi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki uchun O'zbekiston Respublikasining "valyutani tartibga solish tug'risida"gi qonuni xam muhim huquqiy asos bo'lib xisoblanadi. Mazkur qonunning 10-moddasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki valyutani tartibga soluvchi o'rgan hisoblanadi. Qonunning 20-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki valyutani tartibga soluvchi davlat organi hisoblanishi ko'rsatilgan.

1996 yil 25 aprelda "banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining Qabul qilinishi bilan bank tizimining pastki pog'onasi bo'lgan tijorat banklari faoliyatining me'yoriy huquqiy asoslari mustahkamlandi, shu bilan birga to'liq ko'rsatib berildi [16].

Mazkur Qonunda tijorat banklarining huquq va majburiyatlari, bajaradigan operatsiyalari, vakolatlari va boshqa shu kabi muhim masalalar aniq belgilab qo'yildi. Mazkur Qonunning 7-moddasida mamlakatimizda banklar mulkchilikning har qanday shakli asosida aksiyadorlik jamiyati tarzida tashkil etilishi belgilab berildi. Bu esa yagona davlat mulkidan farqli ravishda ko'p ulushli mulkchilik shaklidagi banklarni tashkil etilishiga zamin yaratdi. Xamda, bank faoliyatidan manfaatdorlar bank ta'sischilari, ya'ni aktsiyadorlaridir. Shunday ekan, tijorat banklarida aktsiyadorlar manfaatlarini himoya qilish ustuvor vazifalardan biri sifatida yuzaga chiqadi. Shuningdek, 1996 yil 26 aprelda "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni qabul qilindi. Ushbu qonun 2014 yil 6 mayda yangi tahrirda qayta nashr etildi. Qonunda aksiyadorlik jamnyatlari, ular faoliyatining asoslari, aksionerlar manfaatlari, ularning huquqlari va majburiyatlari batafsil belgilab berildi. Bu esa kelgusida mamlakatda tijorat banklarida moliyaviy xizmatlar va koperativ boshqaruvni shakllantirishga va uni rivojlantirishga turtki bo'ladi. Har qanday faoliyat turining ishonchli, samarali va barqaror faoliyat yuritishida uning milliy va xalqaro me'yor talablari asosida ishlashi muxim hisoblanadi. Ushbu me'yorlarga qay darajada amal qilinayotganligini xolisona baholash, bu auditorlik tashkilotlari tomonidan o'tkaziladigan tekmiruvlar va ularning xulosalari orqali aniqlanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996 yil 24

iyulda qabul qilingan "Respublikada bank auditi tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari tug'risida"gi Farmoni mamlakatimizda tijorat banklarini auditdan o'tkazishni yanada rivojlantirishga katta turtki bo'ldi. Buning natijasida qisqa muddatda mamlakat tijorat banklari xalqaro darajada tan olingan auditorlik kompaniyalarining audit tekshiruvlaridan o'tishni boshlashdi. Bugungi kunda an'anaviy bank xizmat turlarining o'rnini raqamli banking xizmat turlari egallamoqda. Chunki banklar xizmat turlarini takomil-lashtirib bormas ekan, ular daromadini va mijozlar sonini keskin oshirib borish imkoniyatidan mahrum bo'lishi mumkin. Moliyaviy xizmatlar sanoatining rivojlanishi bois jadallashmoqda. Biz yuqorida muhokama qilgan FinTech tendentsiyalari mijozlar talabiga javoban paydo bo'ldi. Ular aslida provayderlarga moliyaviy ma'lumotlardan foydalanish imkoniyatlarini oshirish, shaffoflikni oshirish, tranzaktsiyalarni tezkor qayta ishlash, masofadan xizmatlarni ko'rsatish, identifikasiya qilishning ishonchli usullari va mijoz hayotining aylanish jarayonini yaxshiroq qo'llabquvvatlashga imkon beradigan yanada sifatli xizmatlarni taqdim etishga yordam beradi.

Umuman olganda, adabiyot tahlili tijorat banklarida barqaror rivojlanish ko'rinishlarining ahamiyati ortib borayotganidan dalolat beradi: banklar tobora ko'proq yashil bank amaliyotidan foydalanmoqda. Kelgusida ushbu strategiyalarning barqaror rivojlanish natijalariga erishish va tez o'zgaruvchan global landshaft sharoitida tijorat banklarining barqarorligi va raqobatbardoshligini oshirishda samaradorligini o'rganish uchun qo'shimcha tadqiqotlar talab etiladi.

O'zbekiston Respublikasi bank tizimi va uning bank sektorini rivojlantirish tendentsiyalarini asoslash maqsadida 2020-2025-yillarda O'zbekiston Respublikasi bank tizimini isloh qilish strategiyasi va "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini amalga oshirish mexanizmlarini institutsional ta'minlash baholanmoqda. "O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar milliy banki" unitar korxonasini aksiyadorlik jamiyatiga ("O'zmilliybank" AJ) aylantirish, 2021-2025-yillarda bank sektori sub'yektlarini xususiylashtirish, shuningdek, bank xizmatlarini modernizatsiya qilish va respublika tijorat banklari faoliyatini raqamli o'zgartirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Bank va moliya tizimida yillik kreditlash hajmini 40 milliard dollarga yetkazish, bank omonatlari hajmini 4 barobarga oshirish.

O'zbekiston tijorat banklari tomonidan jalb qilingan omonatlar hajmi 2020–2024-yillar oralig'ida sezilarli darajada oshgan. Jami omonatlar hajmi 2020-yilda 2,2 trillion so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich 5,6 trillion so'mga yetgan. Bu esa 4 yil ichida omonatlarning 2,5 baravarga o'sganini anglatadi. Biroq, "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasida belgilanganidek, 4 baravar o'sish maqsadiga hali to'liq erishilmagan [14].

Adabiyotlar sharhi. Tijorat banklari, bank rahbarlari, mijozlar, tartibga soluvchilar va soha mutaxassislarini o'z ichiga olishi mumkin bo'lgan maqsadli auditoriyani aniqlandi. Barqaror bank amaliyoti bo'yicha tegishli bilim va tajribaga ega bo'lgan ishtirokchilarni tanlash uchun maqsadli namuna olish usulidan foydalandi. Shuningdek

moliyaviy xizmatlar sifatini oshirish va barqaror rivojlanish bilan bog'liq asosiy o'zgaruvchilarni aniqlandi, masalan, moliyaviy ko'rsatkichlar (masalan, rentabellik, aktivlar sifati, likvidlik), barqarorlik ko'rsatkichlari (masalan, uglerod izi, ijtimoiy ta'sir, boshqaruv amaliyoti), moliyaviy xizmatlar sifatini yaxshilash strategiyalari (masalan, raqamli transformasiya, mahsulotni diversifikatsiya qilish). Bu bilan cheklanib qolmasdan maqolada so'rov ma'lumotlari va moliyaviy faoliyat ko'rsatkichlarini tahlil qilish uchun statistik usullardan foydalanildi (masalan, regressiya tahlili, korrelyatsiya tahlili). Korporativ moliya xizmatlari korporatsiyalarning moliyaviy faoliyatini boshqarish uchun juda muhimdir. Franco Modigliani va Merton Millerlarning Modigliani-Miller teoremasida aytilishicha, mukammal bozorda firmaning qiymati qarz yoki kapital orqali qanday moliyalashtirilishiga ta'sir qilmaydi [2]. Bu shuni anglatadiki, soliqlar, bankrotlik xarajatlari yoki assimetrik ma'lumotlarni hisobga olmaganda, firmaning kapital tarkibi uning umumiy qiymati bilan bog'liq emas. Korporativ moliya xizmatlari firmalarda strategik qarorlarni qabul qilish uchun juda muhimdir kapitalni jalb qilish, qo'shilish, kapital tuzilishini optimallashtirish, moliyaviy rejalashtirishva xatarlarni boshqarish. Samarali korporativ moliya xizmatlari firmaning o'sishi, barqarorligi va qiymatini oshirishga yordam beradi.

Iqtisodchi olim F.I.Mirzayev fikricha, "bank xizmatlari banklarning daromadlari o'sishi hamda xususiy va korporativ banklar, shuningdek, iqtisodiyot ehtiyojini qondirishga mo'ljallangan bank tadbirkorligining an'anaviy sohasi hisoblanadi" [3] Iqtisodchi olim B.T.Berdiyarov va O.A.Ortiqov "bank aktiv operatsiyalarini iqtisodiy mazmuniga ko'ra ikki yirik guruhga: ma'lum darajada bankning likvidligini saqlab turish uchun bajariladigan va daromad olish maqsadida bajariladigan operatsiyalarga ajratiladi". Ular "ushbu ikki xizmatlar guruhi o'rtasida ma'lum nisbat mavjud va bu bank faoliyatini sifat jihatdan ma'lum darajada ta'minlab turish imkonini beradi", deb hisoblaydilar [4].

Ushbu tadqiqot metodologiyasiga rioya qilgan holda, biz barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish bilan birga tijorat banklarida moliyaviy xizmatlar sifatini yaxshilash strategiyalarini sinchkovlik bilan o'rganishimiz mumkin, bu esa akademik bilimlarga ham, bank sohasida amaliy qo'llanmalarga ham hissa qo'shadi.

Tahlil natijalari. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tijorat banklari ustav kapitalining minimal me'yorlarini belgilab beradi. Bank tizimini yanada isloh qilish va erkinlashtirish jarayonida O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining yangi tashkil etiladigan banklar ustav kapitalining minimal miqdorini bosqichma-bosqich oshirib borish, uni 2030 yilning 1 yanvariga qadar quyidagi miqdorlarga yetkazish to'grisida taklif amaliyotga tatbiq qilina boshlandi.

- tijorat banklari uchun 5 million AQSH dollari-so'm ekvivalentida;
- xususiy banklar uchun 2,5 million AQSH dollari-so'm ekvivalentida. Tijorat banklari kapitallashish darajasini oshirish xamda qo'shimcha aksiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlarni emissiya qilish va sotish, yuridik xamda jismoniy shaxslardan jalb

etiladigan depozitlarni oshirish xisobiga ular aktivlarini ko'paytirish bo'yicha 2020-2030 yillarga mo'ljallangan dasturlar ishlab chiqish bo'yicha tavsiyalar berildi [14].

Shuningdek, tijorat bankining regulyativ kapitali bank aktivlari umumiy miqdoriga nisbati 10 foizdan kam bo'lishi mumkin emasligi o'rnatilgan.

Tijorat va xususiy banklarning aksiyadorlik jamiyatlarini ishonchli boshqaruvida faol hamda kengroq ishtirok etishlari ularning respublika hududidagi ustuvor vazifalaridan biri deb hisoblana boshlandi.

Tijorat banklarini xususiylashtirish jarayonlarida ishtirokini kengaytirish maqsadida tijorat banklariga qimmatli qog'ozlarning birlamchi bozorida qatnashishlariga hamda xususiylashtiriladigan korxonalar aksiyalarining 50 foizgacha miqdorini belgilangan tartibda sotib olishlariga ruxsat berildi.

Tijorat banklari aktsiyalari (ulushlari) bo'yicha jismoniy shaxslarning dividend tarzida olgan daromadlari 2026 yilning 1 yanvariga qadar soliqqa tortishdan ozod qilindi.

Aholi turmush darajasini oshirishda ipoteka va iste'mol kreditlarining o'ri beqiyos. Mamlakatimizda aholi farovonligini ta'minlash maqsadida, ipoteka va iste'mol kreditlari berishni rag'batlantirish, ularning xuquqiy asosini mustahkamlash maqsadida, 2017 yil 6 mayda qabul qilingan "iste'mol krediti tog'risida" va 2016 yil 4 oktyabrda "Ipoteka to'g'risida"gi qonunlari qabul qilindi. Ushbu qonunlar qabul qilinishi natijasida banklar tomonidan mijozlarga iste'mol va ipoteka kreditlarini ajratish boshlangan bo'lsa, bu ham qaysidir ma'noda banklarning mijozlar talab etgan moliyaviy xizmat turlarini taklif etishlarida namoyon bo'ladi.

Islohotlarni amalga oshirishda, banklarni xususiylashtirishiga ham alohida e'tibor berilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo'mitasi, Moliya vazirligi va Markaziy bank ishtirokida 2005-2006 yillarda "Asaka" bankini xususiylashtirishni, 2005-2009 yillarda esa Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy bankini xususiylashtirishni amalga oshirishi hamda davlat ulushini yetakchi xorijiy banklarga va xalqaro moliya institutlariga sotish kuzda tutilgan bolsa, OTP Bank O'zbekistonning Ipoteka-bankini sotib oldi 2024 yilning sentabr oyida imzolangan kelishuv memorandumidan so'ng, Ipoteka-bankni xususiylashtirish bo'yicha oldi-sotdi shartnomasi OTP Bank nomidan Boshqaruv Raisi – Bosh direktor Sándor Csányi va Bosh direktor o'rinbosari László Wolf hamda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi nomidan Moliya vaziri Timur Ishmetov va O'zbekiston Respublikasi nomidan O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri – Investitsiyalar va tashqi savdo vaziri Jamshid Xodjaev tomonidan Toshkent shahrida imzolandi. OTP Bank O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga tegishli bo'lgan 100% aksiyalarni (jami aksiyalarning qariyb 97%i) ikki bosqichda sotib oladi [14]: dastlab aksiyalarning 75%i va uch yildan so'ng qolgan 25%i sotib olinadi. Bitim shartlari 2023-yilning birinchi yarimida to'raligicha amalga oshirilishi kutilmoqda. Ipoteka-bankning bozordagi ulushi 8,5 foizni tashkil etib, O'zbekistonning beshinchi yirik banki hisoblanadi va chakana mijozlar soni 1,6 milliondan oshadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot davomida tijorat banklari, moliyaviy xizmatlarni diversifikatsiya qilish tushunchasi Diversifikatsiya — bu bank faoliyatida tavakkalchilikni kamaytirish va foyda manbalarini kengaytirish maqsadida xizmat turlarini, mijozlar segmentini yoki bozor yo'nalishlarini kengaytirish jarayonidir.

Tijorat banklari faoliyatida diversifikatsiya quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

- Kreditlash xizmatlarini turli soha va segmentlarga yo'naltirish;
- To'lov va hisob-kitob xizmatlarini kengaytirish (mobil ilovalar, onlayn-banking, QR to'lovlar);
- Investitsion xizmatlar ko'rsatish;
- Sug'urta, lizing, faktor va forfeyting xizmatlarini joriy etish;
- Valyuta operatsiyalarini kengaytirish va eksport-import faoliyatini moliyalashtirish.

Diversifikatsiyaning bank faoliyatidagi ahamiyati Moliyaviy xizmatlarni diversifikatsiya qilish quyidagi afzalliklarni beradi:

- Tavakkalchilikni kamaytiradi, chunki bank bir yo'nalishdagi yo'qotishni boshqasidagi daromad bilan qoplay oladi.
- Daromad bazasini kengaytiradi, bu esa bankning moliyaviy barqarorligini oshiradi.
- Raqobatbardoshlikni kuchaytiradi, chunki keng xizmatlar mijozlar sonini oshiradi.
- Innovatsion rivojlanishga turtki beradi, yangi texnologiyalarni joriy etish orqali mijozlarga qulaylik yaratiladi.

O'zbekistonda bank xizmatlari diversifikatsiyasi holati O'zbekiston bank tizimi so'nggi yillarda raqamli transformatsiya bosqichiga kirdi. "Raqamli bank", "Onlayn kreditlash", "Mobil banking" kabi xizmatlar keng joriy qilinmoqda. Masalan:

- Apelsin, TBC Bank, Anorbank, Ziraat Bank kabi muassasalar yangi turdagi raqamli xizmatlarni yo'lga qo'yimoqda.
- Milliy bank va Asaka bank xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikda investitsion loyihalarni moliyalashtirmoqda.
- Banklar fintex kompaniyalari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yib, yangi moliyaviy mahsulotlar yaratmoqda.

Moliyaviy xizmatlarni diversifikatsiya qilish istiqbollari kelgusida tijorat banklarida diversifikatsiya quyidagi yo'nalishlarda rivojlanishi kutilmoqda:

1. Raqamli bank mahsulotlari — sun'iy intellekt asosidagi tahliliy xizmatlar, masofaviy identifikatsiya, blokcheyn texnologiyalari.
2. Yashil moliya (Green Finance) — ekologik loyihalarni moliyalashtirish, "yashil" obligatsiyalar chiqarish.
3. Islom moliyasi xizmatlari — foyizsiz kreditlar, murabaha va ijara asosidagi operatsiyalarni kengaytirish.

4. Kichik biznes va startaplar uchun maxsus moliyaviy dasturlar — inkubatsiya va investitsiya xizmatlari.

5. Moliyaviy inklyuziyani kengaytirish — aholi va kichik tadbirkorlarning bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini oshirish.

Xulosa. Tijorat banklarda moliyaviy xizmatlarni diversifikatsiya qilish — bu nafaqat daromadni oshirish, balki butun bank tizimining barqaror rivojlanishini ta'minlovchi muhim jarayondir. Kelgusida raqamli transformatsiya, islom moliyasi, yashil moliya va innovatsion xizmatlarning kengayishi O'zbekiston bank sektorini yangi bosqichga olib chiqadi. Shunday qilib, diversifikatsiya banklarning strategik ustuvor yo'nalishiga aylanishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIOTLAR RO'YXATI:

1. Hamidi, H., & Nourani, M. (2020). Green Banking Practices: A Systematic Literature Review. *Corporate Social Responsibility and Environmental Management*, 27(1), 3-22.

2. Franco Modigliani va Merton Miller, J. (2018). Financial Markets Development, Business Cycle, and Bank Risk: Evidence from the GCC Countries. *Research in International Business and Finance*, 46, 418-442.

3. Mamadiyarov.Z.T. (2021). banklarni transformatsiya qilish sharoitida masofaviy bank xizmatlari bilan bog'liq risklarni boshqarish // Экономика и финансы (Узбекистан). №5 (141).

4. B.T.Berdiyarov va O.A.Ortiqov. (2020). Covid-19 koronavirus pandemiyasi sharoitida o'zbekitonda bank sohasini transformatsiyalash jarayonini jadallashtirish // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 5, sentyabr-oktyabr.

5. Abdullaeva Sh.Z. Bank ishi: darslik. – Toshkent, 2003. – 312 b.

6. Barbara Casu, Claudia Girardone, Philip Molyneux. Introduction to Banking. Pearson Education, 2006. – 526 b.

7. B.T.Berdiyarov Tijorat banklari aktiv operatsiyalarining daromadliligi I.f.n. dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent, 2002. – 20 b.

8. Berger, Allen N., & Goyal, Vidhan K. Technological Advancements in Banking: Mobile Banking, Online Platforms, and Digital Wallets. – *Journal of Financial Economics*, 2009. – 94(2). – 185–202 b.

9. Bernards, Nick. Fintech and Its Limits. A Critical History of Poverty Finance: Colonial Roots and Neoliberal Failures. – Pluto Press, 2022. – 154–178 b.

10. Bilotta Nicola, Simone Romano. Tech Giants in Banking: The Implications of a New Market Power. – Istituto Affari Internazionali (IAI), 2019.

11. C.W.Calomiris, Haber, S. H.Fragile by Design: The Political Origins of Banking Crises and Scarce Credit. – Princeton University Press, 2014. – 49 b.

12. Hsu, Sara, Jianjun Li. China's Fintech Explosion: Disruption, Innovation, and Survival. – Columbia University Press, 2020. – 185–201 b.
13. John Maynard Keynes. The General Theory of Employment, Interest, and Money. – 1936.
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Bank xizmatlari ommabop-ligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" Qarori, 23.03.2018 yildagi PQ-3620-son
15. Siddik, M. N. A., & Islam, M. A. (2020). The Nexus between Financial Development and Environmental Quality: Evidence from Asian Economies. Environmental Science and Pollution Research, 27(18), 22694-22706.
16. www.cbu.uz
17. Graf-6512@mail.ru